



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**



**BIOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY
YONDOSHUVLARNING DOLZARB
MASALALARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ
международной научно-практической конференции
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ
ПОДХОДОВ В БИОЛОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЯХ

MATERIALS
of the international scientific and practical conference
ACTUAL ISSUES OF MODERN APPROACHES IN
BIOLOGICAL RESEARCH

Farg‘ona-2023
29-30-noyabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI



**“BIOLOGIK TADQIQOTLARDA ZAMONAVIY
YONDOSHUVLARNING DOLZARB MASALALARI”**

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ

международной научно-практической конференции

**“АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ В
БИОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ”**

MATERIALS

of the international scientific and practical conference

**“ACTUAL ISSUES OF MODERN APPROACHES IN
BIOLOGICAL RESEARCH”**

2023-yil 29-30-noyabr

Farg‘ona

BUXORO SHAROITIDA IQLIMNI MO‘TADILLASHTIRISH, CHO‘L-YAYLOV EROZIYASINI OLDINI OLISHDA YANTOQ O‘SIMLIGI VA URUG‘CHILIGINI AHMIYATI.

**Jumayev F.H. – b.f.n., dotsent. Buxoro davlat universiteti.
f.x.jumayev@buxdu.uz**

Annotation. This article provides information on how the organization of seed production of the plant "Camel-thorn" in desert-pasture areas to preserve the climatic conditions of Bukhara from the scorching heat contributes to its reproduction. The ecological and biological features of the germination of " Camel-thorn" from seeds are revealed.


Buxoro viloyati qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishda tashqi iqlimni ta’siri juda katta. Ayniqsa yoz oylarida may iyunda bug‘doy pishishida haroratni keskin ko‘tarilishi donni to‘liq shakllanmay qotib qolishiga, iyul avgust oylarida jazirama issiqlik garmisel esa g‘o‘za o‘simligini shona, gul va 10 kunlikgacha bo‘lgan ko‘saklarni to‘kilishiga sabab bo‘ladi. Bunday holatni kuzatilishiga sabab dehqonchilik qilinadigan maydonlarga cho‘l va yaylovlarni yashil qoplamini yo‘q bo‘lib ketishi tuproq va kummi qizib ketib umumiy ob-havoni meyordan ortiqcha bo‘lishidandir.

So‘ngi yillarda yer sharida havo haroratining ortishi cho‘lli hududlar maydonini keskin tarzda ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Cho‘l hududlaridan esa yaylov sifatida keng ko‘lamda foydalanilmoqda. O‘zbekiston hududidagi cho‘l yaylovlarining mahsuldorligi juda past, ya‘ni 1 – 3 s/ga ni tashkil etadi. Bu esa cho‘l yaylovlaridan yil davomida foydalanish imkoniyatini chegaralab qo‘ymoqda.

Yuqoridagi muammolardan kelib chiqib madaniy hududlarda iqlimni mo‘tadillashtirishning muhim yechimidan biri cho‘l-yaylovlarda yashil qoplamni tashkil etishdan iborat. Buxoro cho‘l-yaylovlarda yashil qoplamni hosil qilishda eng yaxshi o‘simliklardan biri yantoqdir. Yantoq urug‘idan va vegetativ ildiz bachkilari orqali ko‘payish xususiyatiga ega. Ko‘pchilik turlarning urug‘idan ko‘payishiga (generativ ko‘payishiga) jinsiy organlarning hosil bo‘lishidagi muhit ta’siri sabab bo‘ladi. Gullarning otalanishiga, urug‘larning pishiqligiga, ularning tabiiy holda unib chiqishiga va hokazolarga tashqi muhitning ta’siri bo‘ladi. Ekologik faktorlarning ta’siri va boshqa sabablar natijasida ba’zi o‘simliklar vegetativ ko‘payish usuliga moslashgan. Shunday o‘simliklar sarasiga yantoq o‘simligini misol qilib kiritish mumkin.

Yantoq o‘simligi dukkakdoshlar oilasiga mansub bo‘lib O‘zbekistonda uning 4 turi uchraydi. (1-

rasm).-* Alhagi canescens (Regel) B Keller Shap – kulrang yantoq - * Alhagi kirghisorum Schrenk – qirg‘iz yantog‘i - * Alhagi pseudalhagi (m.Bieb) Dasv.ex B. Keller Shap – soxta yantoq - * Alhagi persarum Boiss – fors yantog‘i. Yantoq hayotiy shakliga ko‘ra o‘tsimon, uzun ildizpoyali, tikanli, ko‘p yillik, kuchli yog‘ochlangan o‘q ildizli va yer ustining asosigacha quriydigan (gemikriptofit) o‘simlik hisoblanadi.



Rasm-1. Tabiiy sharoitidagi yantoq.
unuvchanligini 95-98 % ga yetkazish mumkin. [1].

Yantoq turlari tabiiy sharoitda generativ organlarni yaxshi hosil qiladi, gullar hosil qilib, changlanib urug‘ hosil qiladi. Yantoq urug‘ining unuvchanligi laboratoriya sharoitida (namlik 70-90 %, harorat 30-35 % bo‘lganda) yaxshi unib chiqadi va unuvchanligi 40-60 %, ni tashkil qiladi. Skorifikatsiya qilish usuli bilan yantoq urug‘ining

Bir qator olimlar yantoqni tabiiy sharoitda urug‘idan unib chiqishini kuzatishgan. Jumladan M.N.Davletshina Nurota cho‘llarida [1], A.D.Gushin Toshkent sharoitida yantoq urug‘idan unib chiqishni aniqlay olishmaganligini ta’kidlaydi [2].

Tabiiy holda yantoq urug‘i unuvchanligining 100 yilgacha saqlanishi mumkinligi isbotlangan [3], lekin 1977-1978 yillar X.Mavlanov tomonidan Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi Oqtom ko‘li qirg‘oqlarida yantoqning urug‘idan o‘nib chiqqan ko‘plagan nihollari uchratilgan va kuzatilgan [4].

Yantoq urug‘i toshsimon urug‘lar qatoriga kiradi, u o‘ta pishiq qobiq (po‘st) bilan o‘ralgan. Bu po‘stning nam o‘tkazuvchanligi o‘ta yomon bo‘lganligi uchun urug‘dagi zigotaning unishi uchun kerakli bo‘lgan namlik so‘rilmaydi. U tabiatda urug‘idan yomon unushi uning urug‘ining anatomik va fiziologik tuzulishi bilan bog‘liq. 1000 ta urug‘ning og‘irligi 5-6 gramni tashkil etadi. Suv miqdorining yetishmasligi urug‘dagi zigotaning o‘sib rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu yerda irsiy xususiyatlarni ham inobatga olish kerak. Darhaqiqat yantoq kelib chiqishi bo‘yicha to‘qay o‘simligi bo‘lganligi sabab uning urug‘ining unib chiqishi uchun katta miqdorda suv va shu davrning o‘zida yuqori +35+40 gradus xarorat talab etiladi. Bunday sharoitni cho‘l (adir) xududida bir paytning o‘zida (erta bahorda) topish qiyin, ya’ni namlik bahorda (mart oyida) yetarli bo‘lishi mumkin lekin harorat past.

Yantoq urug‘i qattiq toshsimon bo‘lganligi uchun unuvchanligi uzoq muddat saqlanuvchi (giperunuvchan) hisoblanadi. Yoz oylarida harorat yetarli (yuqori) lekin namlik kam bo‘lishi uning unishiga to‘sqinlik qiladi. Yantoq o‘simligining adir xududlarida normal unushi uchun ikkita ekologik omil suv va harorat yetarli (munosib) bo‘lishi kerak. Aynan Buxoro sharoitida yoz oylarida sizot suvlarni ko‘tarilishi yantoq urug‘larini adoq yerlarda unib chiqish imkoniyatini oshiradi. Shuning uchun yantoq dukkaklarini yig‘ib urug‘ini tozalab olib ekish va yantoqzorlarni tashkil etish lozim rasm-2,3.



Rasm-2. Yantoq mevasi (dukkak).



Rasm-3. Yantoq mevasini quritib olish.

Ilmiy ma’lumotlarga qaraganda tabiatda yantoq 3-6 % gacha urug‘idan ko‘payish xususiyatiga ega ekan. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki tabiatda yantoqning urug‘idan ko‘payishi ehtimoli juda kam. Lekin yantoqning urug‘idan ko‘payishi o‘ta yomon bo‘lishiga qaramasdan Markaziy Osiyo mamlakatlarida va xuddi shunday, yer sharining ko‘pgina davlatlarida bu o‘simlik keng tarqalgan. Ko‘pchilik xududlarda juda katta maydonlarni egallaydi. Tabiiy sharoitda ko‘chat qalinligi gektariga 2-3 ming tupdan 10 ming tupgacha bo‘lishi mumkin. Yantoq turlari asal shira, efir moyi, vitamin, bo‘yoq beradigan va shifobaxsh pereparatlar, alkagolsiz ichimliklar tayyorlashda zarur hom ashyo hisoblanadi. Undan tashqari yantoqdan oziq ovqat maqsadida, tuproqni azot bilan boyitishda, ko‘chma qumlarni mustahkamlashda, tuproq

nurashini oldini olishda keng foydalanish mumkin. Lekin yantoq qadimdan ham, hozir ham cho‘l, yarim cho‘l chorvasi uchun qimmatli yem-hashak, yaylov va yagona pichan beruvchi o‘simlik hisoblanadi. Yantoqning yer osti qismi, uning yer usti qismiga nisbatan 10-20 marotaba uzun bo‘ladi. Yer osti suvlari yaqin bo‘lgan xududlarda, suv havzalari, kanallar buylarida uning ildizi 2-4 metrni tashkil etsa cho‘l va yarim cho‘llarda 30-40 metrgacha yetishi mumkin. Vertikal ildiz singari yon gorizonttal ildizlar ham kuchli tarmoqlab rivojlanib 40-50 metrga yetishi mumkin. Uning diametri yoshiga qarab 0,5 sm.dan 5 sm.gacha buladi. Yantoqning tabiatda keng tarqalishi va uning har xil tuproq (gips, qumloq, toshloq, sho‘rxoq) va shundain noqulay iqlim (yuqori harorat) suv tanqisligi sharoitlarida uchrashi uning kuchli rivojlangan va hamisha yer osti suvlariga yetib boradigan ildiz tizimi bog‘liq. Kelib chiqishi to‘qay o‘simligi bo‘lganligi sabab uning suvga bo‘lgan talabi ancha yuqori. Bir tup yantoq bir quyoshli kunda 2,5 litrgacha suv parlatishi mumkin, bir gektar maydondagi yantoq tuplari o‘rtacha 350 tonnagacha yer osti suvlarini qabul qilib uni parlatishi mumkin. Yantoq o‘simligini bu jihatlaridan foydalanib Buxoro yaylovlarida yantoqzorlarni tashkil etish orqali tevarak atrof ob-havosini iqlimini mo‘tadillashtirish imkonini beradi. Bu esa madaniy hududlarga yaylov va cho‘llardan issiq garmsellarni kelishini oldini olib boshqa qishloq xo‘jalik ekinlardan yuqori hosil olish imkonini yaratadi [5]. Bundan tashqari yantoq tabiatda suv aylanishini yaxshilaydi va o‘sayotgan xududining mikroiqlimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib biologik xilma-xillikni saqlashda alohida e‘tiborga egaligini inobatga olib yantoqzorlarni tashkil etish va urug‘chiligini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyatga ega. Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani Quchchi massivida yantoqzorlardan o‘rtacha bir metr kvadrat maydondan 20-30 gramm yantoq mevasi dukkaki terib olindi, bu uni urug‘chiligini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar.

1. Gushin P.O. Biologiya yantaka (Alhagi).Tashkent. SAGU. 1995.108s.
2. Davletshina M.N. Alhagi pseudalhagi – verblyujya kolyuchka obiknovennaya, yantak lojniy // Adaptatsiya kormovix rosteniy k usloviyam aridnoy zoni Uzbekistana. Toshkent. 1983. St.219-234.
3. Mavlanov X. O Jiznesposobnosti semyan yantoka//Dokl.ANUzSSR.1978. №-6. st.51-52.
4. Mavlanov X. Yantachniki Uzbekistana. Toshkent .Mehnat. 1995.st.167.
5. Jumayev F.H., Umarov K.,- Buxoro viloyat dala dehqonchiligidagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etishni ilmiy asoslari.// Qishloq xo‘jaligida ekologik muammolar xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar i to‘plami.-Buxoro, 2003 yil,121-122 b.

FARG‘ONA VODIYSINING O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TARQALGAN EFEMER O‘SIMLIKLAR

Kadirova Xulkaroy Abduvasiyevna, hulkaroykadirova81@gmail.com

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotation. *This article describes the analysis of the research conducted on ephemeral plants in the Fergana Valley, the number of therophyte and ephemeral plants and their current taxonomic names.*

Tabiatni o‘simlik va hayvonot olamisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu tabiat boyliklari bir-biriga chambarchas bog‘liqki oziq zanjirada, biosferadagi atomlar migratsiyasida, tabiatda gazlar almashinuvida asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bilan birgalikda o‘simliklar dunyosining bir bo‘lagi hisoblangan efemer o‘simliklar ham muhim ahamiyatga ega. Efemer o‘simliklar orasida dorivor, zaharli, yem-hashak, asalshirali, manzarali va shu bilan birgalikda begona o‘t o‘simliklar ham uhraydi. Shunday ekan efemer o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish botanic olimlarimizni ham chetda qoldirmagan. *O‘zR FA Botanika institutining gerbariy fondini o‘rganilishlar natijasida shu narsa aniq bo‘ldiki, Euclidium syriacum (L.) W.T. Aiton (Соловьёв 1909 год, Ур.Кара-Космак. Наманганский уезд), Onobrychis pulchella Schrenk ex Fisch. & C.A.Mey. (Рожевиць Р.Ю*

Жалолова У., Яркулова З. МОРФОЛОГО-АНАТОМИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТРАВЫ ЧЕРНУШКИ ПОСЕВНОЙ (<i>NIGELLA SATIVA</i> L.)	52
Jumayev F.H. BUXORO SHAROITIDA IQLIMNI MO'TADILLASHTIRISH, CHO'L-YAYLOV EROZIYASINI OLDINI OLIHDA YANTOQ O'SIMLIGI VA URUG'CHILIGINI AHMIYATI.	55
Kadirova X. FARG'ONA VODIYSINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TARQALGAN EFEMER O'SIMLIKLAR	57
Kurbonova M. Imirsinova A. <i>AEGILOPS</i> L. TURKUM VAKILLARI CHANG DONACHALARINING FERTILLIGI	59
Mamajonova M.M., Mahmudov V.M. FARG'ONA VILOYATIGA INTRODUKSIYA QILINGAN DORIVOR O'SIMLIK TURLARI HAQIDA DASTLABKI NATIJALAR	61
Masobirov D. CONCENTRATED PHOSPHORUS COMPLEX FERTILIZERS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS	63
Maxmudov V., Raxmonova S. FARG'ONA VILOYATI TOSHLOQ TUMANIDA ZA'FARON (<i>CROUS SATIVA</i> L) IQLIMLASHTIRISH BO'YICHA DASTLABKI NATIJALAR	64
Maxmudov V., Maxmudov A. FARG'ONA VILOYATI SHAROITIDA INTRODUKSIYA QILINGAN <i>CROCUS SATIVUS</i> L. ONTOGENEZI	66
Muydinov R., Muydinov J., Rustamova M. SAMARQAND BO'ZNOCH O'SIMLIGINI URUG'DAN YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQUISH	69
Norqulova L.U., Subxonberdiyev F.I. KO'K ARCHA (MOVIY ARCHA) (<i>PICEA PUNGENS</i>) MORFOBIOLOGIYASI VA UY SHAROITIDA KO'PAYTIRISH ISTIQBOLLARI	71
O'ralov B., Begmatov A. <i>LAMEACEAE</i> LINDL. OILASIGA MANSUB BO'LGAN AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNING LABORATORIYA SHAROITIDA URUG' UNUVCHANLIGINI ANIQLASH	73
O'rinboev I. SHIMOLIY-SHARQIY O'ZBEKISTONDA TARQALGAN <i>ZIZIPHORA</i> O'SIMLIK TURKUM TURLARINING ZANG ZAMBURUG'LARI	75
Olimova X.Z., Mahmudov V.M. ANDIJON VILOYATIDA ZAFARON (<i>CROCUS SATIVUS</i> L) INTRODUKSIYASI BO'YICHA DASTLABKI NATIJALAR.	77
Oripova B. G'O'ZA TURLARIDA GULLASHGA ALOQADOR GEN MARKERLARINING PIC VA GETEROZIGOTA (HE) QIYMATLARI	79
Qahhorov I.B., Qarabayeva D.J. DORIVOR EXINATSEYA (<i>ECHINACEA PURPUREA</i> L. MOENCH) O'SIMLIGINI INTRODUKSION BAHOLASH	81
Qodirov M.S., Zokirov X.X. BO'Z TUPROQLAR SHAROITIDA KARTOSHKA HOSILDORLIGINING ORGANIK VA AZOTLI O'G'ITLAR BILAN BOG'LIQLIGI	83
Raxmatullaev I., Sultonov B., O'rmonov S. BALXI TUTINING KIMIYOVIY TARKIBI VA SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARIGA OID TADQIQOTLAR	85
Собирова Г.Х. ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИСТОЧНИКИ В РАЗРАБОТКЕ ФИТОПРЕПАРАТОВ	86
Собирова Г.Х. АНТИОКСИДАНТНЫЕ СВОЙСТВА ЦЕЛЕБНЫХ ТРАВ И АПТЕЧНЫХ СБОРОВ	88
Sobitov O.T., Abdullayev Sh.S., O'ralova Sh.A., Yusupov Z.O., O'ZBEKISTONDA TARQALGAN <i>POA RELAXA</i> OVCZ. TURNING DNK OPTIMIZATSIYASI	90
Tillabayev B. PROBLEMS AND SOLUTIONS IN PLANT PROTECTION	92
Toshtemirova M., Fayoziddinova X. KOVUL O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. KIMIYOVIY TARKIBI. XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI VA UNDAN FOYDALANISH	94
Tuxtaboyeva F.M., Axmedova M.R., Ismoilov I.X. AYRIM BUG'DOY NAV URUG'LARINI LABORATORIYA SHAROITIDA SHO'RGACHIDAMLILIGINI ANIQLASH	95
Tuxtaboyeva F.M., Ismoilov I.X., Yuldasheva M.M. ETAMON BIOSTIMULYATORI TA'SIRIDA DONLI EGINLARNING ILDIZ O'SISHINI KUZATISH	98